O‘QITUVCHI–O‘QUVCHI MUNOSABATLARINING AKADEMIK NATIJALARGA TA’SIRI

Vaxabova Sojida Sulton qizi
TMC instituti pedagogika va psixologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Ta'lim tizimi barcha jamiyatlarning taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishida muhim omillardan biridir. Ushbu munosabatlar, o‘qituvchining pedagogik mahorati va o‘quvchining motivatsiyasi o‘rtasidagi samarali aloqalarni shakllantirishi, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli va samarali rivojlanishiga yordam beradi. O‘qituvchining roli faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda ham katta ahamiyatga ega. O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi to‘g‘ri aloqalar, o‘zaro hurmat, ishonch va muloqot samarali o‘qitish va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni bir necha turlarga ajratish mumkin: pedagogik munosabatlar, emotsional munosabatlar va ijtimoiy munosabatlar. Pedagogik munosabatlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida bilim almashish jarayonini tashkil etadi. Emotsional munosabatlar o‘qituvchi o‘quvchilarning his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari va qiziqishlariga e’tibor qaratadi, bu esa o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy munosabatlar esa o‘qituvchi o‘quvchilarga jamiyatda o‘rin topish, axloqiy va ijtimoiy qoidalarga amal qilishni o‘rgatadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali munosabatlarni rivojlantirish uchun bir qator omillar muhim ahamiyatga ega. Ishonch va hurmat ta’lim jarayonining samarali bo‘lishiga ta’sir qiladi. O‘quvchilarning o‘qituvchiga bo‘lgan ishonchi va hurmati o‘quvchilarning o‘qish faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Samarali kommunikatsiya o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ochiq, samimiy va o‘zaro tushunishga asoslangan aloqalarni o‘rnatishga xizmat qiladi. Bu o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga va o‘zining rivojlanishiga yordam beradi. Motivatsiya o‘qituvchining o‘quvchini qiziqtirishi va unga o‘z maqsadlariga erishish uchun undash zarurligini ko‘rsatadi. Motivatsiya o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga faol ishtirok etishiga va o‘z bilimlarini rivojlantirishga undaydi.[1]

O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijobiy yoki salbiy munosabatlar o‘quvchilarning akademik, ijtimoiy, hissiy va xulq-atvorlari rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Maktablarda aynan insoniy munosabatlar sifatini oshirish uning tashkilot sifatida mavjudligiga sababdir. Shu munosabat bilan

[1]

maktablarning tashkiliy, ma’muriy va tarbiyaviy vazifalari mavjud bo‘lib, ular ba’zi qonun va qoidalar bilan yuklanadi. Maktabdagi insoniy munosabatlarning maqsadini butun jamoani ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yo‘naltirish uchun jamoa bo‘lib ishlashga undash sifatida ifodalash mumkin. Maktab rahbariyati uning ichki elementlari (o‘qituvchilar, o‘quvchilar, nodavlat ta’lim xodimlari) va tashqi elementlar (oilalar, tijorat tashkilotlari,mahallalar) bilan hamkorlik qilish orqali maktabning barcha qatlamlari uchun sog‘lom va uzluksiz insoniy munosabatlar va maktab madaniyati va muhitini yaratishga harakat qilishi kerak. Maktabdagi inson munosabatlarini turli o‘lchovlarda, jumladan “ma’muriyato‘quvchi munosabatlari”, “ustoz-shogird munosabatlari”, “o‘quvchi-o‘quvchi munosabatlari”, “maktab-muhit-o‘quvchi munosabatlari”da ko‘rib chiqish mumkin. Ushbu besh guruh o‘rtasida o‘rnatilgan va qo‘llab-quvvatlanadigan munosabatlarning sifati maktablarda beriladigan ta’lim sifatiga va o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.[2]

O‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlarining akademik natijalarga ta’siri bosqichma-bosqich tarzda:

1. Muloqotni samimiyligi va ishonch
2. Adolat va hurmatga asoslangan yondashuv
3. Talabchanglik va qo‘llab quvatlash
4. Ijobiy sinf muhiti
5. Rag‘batlantirish va motivatsiya
6. Individual yondashuv

Maktab o‘quvchilarini darslarga qiziqtirish pedagogik mahorat va psixologik bilim talab etadi. O‘quvchilarni darslarga qiziqtirishning usullari va yo‘llari turli bo‘lishi mumkin, lekin asosiy maqsad ularning ilmga bo‘lgan chanqoqligini oshirish va o‘zlashtirish jarayonini qiziqarli va samarali qilishdir. Buning uchun quyidagi maslahatlarga amal qilish mumkin:-Darslarni o‘quvchilarning qiziqishlari, iqtidorlari va imkoniyatlari asosida tashkil etish. Har bir o‘quvchi uchun individual yondashuv va yo‘nalishlar belgilash.-Darslarni interaktiv, amaliy va ijodiy usullar bilan o‘tkazish. O‘quvchilarni faol ishtirok etishga, savol berishga, fikr bildirishga, tajriba almashishga da’vat qilish.-Darslarni hayotiy, zamonaviy va dolzarb mavzular bilan bog‘lash. O‘quvchilarga darslarning amaliy ahamiyati va foydasi haqida tushuncha berish.-Darslarni o‘quvchilarningo‘zlarining tanlagan sohalar, kasblar va yo‘nalishlar bilan bog‘lash. O‘quvchilarni to‘garak ishlari orqali kasb-hunarga yo‘naltirish va tanishtirish.-Darslarni o‘quvchilarning o‘zlarining shaxsiy va ijtimoiy muammolari bilan bog‘lash. O‘quvchilarga darslarning ularning hayotida qanday yordam berishi

[2]

mumkinligini ko‘rsatish.-Darslarni o‘quvchilarning o‘zlarining fikr va mulohazalarini aks ettiradigan usullar bilan o‘tkazish. O‘quvchilarni o‘z fikrlarini ifodalashga, boshqalar bilan munozara qilishga, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilishga rag‘batlantirish

-Darslarni o‘quvchilarning o‘zlarining ijodkorlik va ixtiro qobiliyatlarini namoyon qiladigan usullar bilan o‘tkazish.[3]

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki o‘quvchi-o‘qtuvchi munosabatlari ta’lim sifatini belgilovchi muhum omillardan biridir. Hurmatga asoslangan, adolatli va qo‘llab quvatlovchi munosaba o‘quvchilarning bilim olishdagi ishtiyoqini kuchaytiradi o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirib, yuqori akademik natijalarga olib keladi. Bilaks so‘vuq qo‘pollika asoslangan yoki etiborsiz munosabat o‘quvchilarni darsdan uzoqlashtiradi, mativatsiya va o‘qish samaradorligi pasayadi.

Adabiyotlar:

1.Dilbar.D MARKAZIY OSIYO ILMIY TADQIQOTLAR AKADEMIK JURNALI CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH 202. 244 BET

2.Ortiqov.A.X“PEDAGOGS” international research journal March-2024 57-58bet

3.Avezova S.A “O‘zbekistonda yangi uyg‘onish –Uchinchi Renessans: ilm-fan taraqqiyotida yoshlarning o‘rni” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi “Ilm-fanziyosi” xalqaroilmiy-amaliyko‘riktanlovi 164-165bet

[3]